

ISSN: 2181-1040

DOI: 10.26739/2181-1040

tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6
ISSUE 2**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 2

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 2



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFOVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Aleksandr Naymark

MINGO‘RIK BITIKTOSHI: O‘RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHIKKA OID YODGORLIGIMI?.....7

2. Nazarova Shahnozaxon

MILLIY HURRIYAT SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI.....23

3. Yusupova Dildora

“ISLOM MODERNIZMI” VA “ISLOMNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI.....36

4. Hakimov Nazar

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION
YONDASHUV.....44

5. Usarova Feruza

JADIDLAR G‘OYASINING YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANG
JIHATLARI.....52

6. Amirov Azamat

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI RAQAMLASHTIRISH
MASALALARI.....60

7. Филиппов Ольгерд

ЦИФРОВОЙ ГУМАНИЗМ КАК ПАРАДИГМА ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ.....66

8. Ashrapov Ravil

READING CULTURE IN MODERN LIFE OF UZBEKISTAN.....79

9. Muminkhujayev Abrorkhuja

INTEGRATING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY AND AI TO ENHANCE WRITING AND
SPEAKING SKILLS OF DIGITAL RESIDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS.....87

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ****JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Yusupova Dildora Dilshatovna**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti

“Falsafa” kafedrasida dotsenti falsafa fanlari doktori (DSc),

Email: yu.dildorahon@gmail.com

**“ISLON MODERNIZMI” VA “ISLONNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17418775>**ANNOTATSIYA**

Maqolada muallif “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” jarayonlarining oʻtgan davrda va bugungi kundagi koʻrinishlarini, ushbu mavzuga oid qarashlarni, Jamoliddin Afgʻoniy, Muhammad Abdo va jadidlarning islom modernizmiga qoʻshgan hisslarini komparativistik usulda tahlil qilib beradi. Shuningdek, muallif islom modernizmi musulmonlar uchun anʼanaviy diniy koʻrinishlardan chetlanmasdan zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va siyosiy talablariga mos ravishda rivojlanishga qaratilgan jarayon ekanligini Sharq va Gʻarb olimlarining qarashlari orqali qiyoslab tushuntirib beradi. Maqolada “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda uni bir vaqtning oʻzida qaysi maqsadlarga yoʻnaltirilganligini yanada teranroq anglashga eʼtibor qaratiladi.

Kalit soʻzlar: islom, musulmon, musulmon jamiyatlari, modernizm, diniy modernizm, islom modernizmi, musulmon modernizmi, islomni modernizatsiya qilish, islohotchilik harakati, jadid maʼrifatparvarlari.

Yusupova Dildora Dilshatovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Associate Professor, Department of Philosophy,

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

E-mail: yu.dildorahon@gmail.com

**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PROCESSES OF “ISLAMIC
MODERNISM” AND “MODERNIZATION OF ISLAM”****ABSTRACT**

In the article, the author comparatively analyzes the manifestations of “Islamic modernism” and “modernization of Islam” processes in the past and present, views on this topic, and the contributions of Jamoliddin Afghani, Muhammad Abdo, and the Jadids to Islamic modernism. The author also explains, through a comparison of Eastern and Western scholars’ perspectives, that Islamic modernism is a process aimed at the development of Muslims in accordance with the social and political requirements of modern society, without deviating from traditional religious forms. The article focuses on gaining a deeper understanding of the essence of the concepts “Islamic modernism” and “modernization of Islam”, as well as the simultaneous goals they are directed towards.

Key words: Islam, Muslim, Muslim societies, modernism, religious modernism, Islamic modernism, Muslim modernism, modernization of Islam, reform movement, Jadid enlighteners.

Юсупова Дилдора Дилшатовна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Доцент кафедры «Философия», доктор философских наук (DSc)

Email: yu.dildorahon@gmail.com

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ “ИСЛАМСКОГО МОДЕРНИЗМА” И
“МОДЕРНИЗАЦИИ ИСЛАМА”****АННОТАЦИЯ**

В статье автор проводит сравнительный анализ прошлых и современных аспектов процессов “исламского модернизма” и “модернизации ислама”, взглядов на эту тему и вклада Джамалиддина Афгани, Мухаммада Абдо и джаидов в исламский модернизм. Автор также сравнивает и объясняет через взгляды восточных и западных ученых, что исламский модернизм - это процесс, направленный на развитие мусульман в соответствии с социальными и политическими требованиями современного общества, не отклоняясь от традиционных религиозных форм. В статье основное внимание уделяется более глубокому пониманию сущности понятий “исламского модернизма” и “модернизации ислама”, а также целям, на которые они одновременно направлены.

Ключевые слова: ислам, мусульман, мусульманские общества, модернизм, религиозный модернизм, исламский модернизм, мусульманский модернизм, модернизация ислама, реформаторское движение, джаидские просветители.

Kirish va dolzarbli. Bugungi globallashuv davrida davlatning din bilan munosabatlariga, ya'ni dunyoviy davlatlarda islom omiliga katta e'tibor berilayotgan bo'lib, biroq islom modernizmiga yetarli darajada diqqat qaratilmayapti. Aynan ushbu mavzuni o'rganishga e'tiborning kamligi esa, o'tgan asr bilan bog'liq mafkuralarning bugungi kunda yangicha qiyofada maydonga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, avvalo diniy modernizm masalasini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

“Diniy modernizm” (lotincha modernus – zamonaviy) tushunchasi bugungi kunda din tarixida ham, hozirgi bosqichda ham mavjud bo'lgan u yoki bu fenomenlarni belgilash va tavsiflash uchun keng qo'llaniladi. Biroq uni aniqlash, unda ko'rsatilgan belgilarning aniqlanayotgan predmetning haqiqiy xossalriga muvofiqligini aniqlash muammosi hali hal qilinmagan” [1, – C. 210].

“XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan beri diniy modernizm an'anaviy diniy qarashlar va amaliyotlarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar qo'yayotgan talablar bilan murosaga keltirishga urinish sifatida tushunilayotganligi” [1, – C. 212]. islom modernizmi, ya'ni islomni isloh qilinish jarayonlarining ijobiy va salbiy tomonlarini ochib berishga ham ehtiyoj paydo qilmoqda. Shuning uchun, o'tgan asrda Turkistondagi “islom modernizmi” va bugun Yaqin Sharq mamlakatlaridagi siyosiy beqarorliklarni keltirib chiqarayotgan “islomni modernizatsiya qilish” jarayonini tahlil qilish, mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzuni tadqiq qilishda tarix falsafasi, komparativistika, mantiqiylik kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, mavzuni o'rganishda Adib Xalid, D.A.Golovushkin, A.V.Beloglazov, A.M. Rodrigues, O.S.Cherevko, O.N.Senyutkina, T.Ibragim kabi olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Muhokama. Bugun butun dunyoda, xususan O'zbekistonda ham din niqobidagi ekstremistik guruhlarining yoshlarga ta'siri ortib bormoqda. O'zbekistonda ham din sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilishiga qaramay yangi diniy xavf-xatarlar ko'lami kengayib bormoqda. Aynan ana shunday xatarlarning tub zahirida “islom dinini modernizatsiya qilish” g'oyasi yetakchilik qilmoqda. Xususan, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni din niqobidagi ekstremistik guruhlarining g'oyalaridan saqlash o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois, “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” jarayonlarini ilmiy-falsafiy tahlil qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi [2].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropani Sharqdan ustunligi sharoitida o'z vaqtida harakatni boshlashni hamda musulmon olamini bilim darajasini oshirish, islom dinini zamonaviy

sharoitlarga moslashtirish zarurligini tushunib yetgan bir guruh ma'rifatparvarlar mustamlakachilik siyosatidan qutulishning eng to'g'ri yo'li "islom modernizmi" deya bildilar.

"Islom modernizmi – bu sharqshunoslik muhitida ko'pincha islom dinini demokratiya, fuqarolik huquqlari, tenglik va taraqqiyot kabi zamonaviy (modernistik) qadriyatlar bilan murosaga keltirishga urinayotgan "G'arbning madaniy va siyosiy qarashlariga birinchi islomiy mafkuraviy javob" sifatida ta'riflanadigan harakatdir. Bu esa "Islom huquqshunosligining klassik aqidalari va usullarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish" va islom ilohiyotiga hamda Qur'on va Sunnat tafsiriga yangicha yondashuvga olib keldi" [3].

Islom modernizmi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan harakat bo'lib, bu vaqtda musulmon jamoalari G'arbning kuchli iqtisodiy, siyosiy va ilmiy taraqqiyoti bilan yuzma-yuz keldi. Turli musulmon ziyolilari va islohotchi olimlari G'arb jamiyatidagi demokratiya, inson huquqlari, tenglik, ta'lim va ilm-fan kabi qadriyatlarni kuzatar ekan, ushbu zamonaviy qadriyatlarni islom dini va jamiyatga qanday moslashtirish haqida o'ylay boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, islomiy jamiyatning taraqqiy etishi uchun bu qadriyatlarning ba'zilar bilan murosaga kelib, ulardan zarur tamoyillarni qabul qilish lozim edi [4].

Islom modernizmi vakillari musulmon dunyosidagi klassik islom huquqshunosligining (fiqhning) ayrim qoidalarini va diniy tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga urindilar. Ularning fikricha, ko'pgina fiqhiy qoidalar va diniy tushunchalar o'rta asrlardagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarga moslashtirilgan bo'lib, bugungi zamonaviy dunyo sharoitida ularga qayta nazar solish talab etilar edi [4]. Bu tanqidiy yondashuv ularni islom huquqshunosligining ba'zi qoidalarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlashga yetakladi.

Shu tariqa, islom modernizmi Qur'on va Sunnat kabi asosiy islom manbalarini tafsir qilishda yangicha yondashuvlarni tavsiya etadi. Bunday yondashuvlar mavjud diniy matnlardan zamonaviy tushunchalar, inson huquqlari, adolat va tenglik kabi tushunchalarni topishga, ularni sharhlashga harakat qiladi. Masalan, ba'zi islom modernistlari Qur'on oyatlarini harfma-harf yoki mavjud qoidalarga bo'ysungan holda emas, balki ularni keng ma'noda, umumiy qadriyatlar asosida talqin qilishga uringanlar. Ularning fikriga ko'ra, Qur'on umuminsoniy qadriyatlar manbai bo'lib, insonning asosiy huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan [3].

Bu harakat vakillari demokratiya, inson huquqlari va tenglik kabi tushunchalarning islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi mumkinligiga ishonib, islom jamiyatida ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishga harakat qildilar. Ularga ko'ra, islom jamiyati o'zining ilmiy va ma'naviy asoslariga tayanish bilan birga, dunyodagi ilmiy va madaniy yutuqlarni ham qabul qilishi va ulardan foydalanishi lozim [5]. Shu orqali, islom modernizmi musulmon jamiyatining zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topishiga va yangi ilmiy, madaniy hamda siyosiy tahdidlarga munosib javob berishga intiluvchi harakat sifatida qabul qilindi.

Umuman olganda, islom modernizmi musulmonlar uchun an'anaviy diniy ko'rinishlardan chetlanmasdan zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va siyosiy talablariga mos ravishda rivojlanishga urinishdir. U zamonaviy qadriyatlarni tanqidiy qayta tahlil qilish va ularni islom ma'naviyati asosida qayta qurishga harakat qiladi, bu esa islom madaniyatida ma'lum ma'noda demokratiya, inson huquqlari, tenglik va taraqqiyotning kuchayishiga zamin yaratadi. "Islom modernizmi nafaqat islomning o'zi, balki Sharq jamiyatlarining taraqqiyot hodisasi sifatida Yevropaning iqtisodiy va madaniy yutuqlari, tafakkur va harakat tarzining kengayishiga o'ziga xos javob bo'ldi. Ular mustamlakachilik to'liqini va buyuk imperiyalar – ingliz, fransuz, rus va boshqalarning siyosiy-iqtisodiy kengayish to'liqini bilan birga musulmonlar an'anaviy tarzda yashaydigan mamlakatlar va mintaqalarga kirib kela boshladilar" [5].

Shu bois, islom modernizmi nafaqat diniy harakat sifatida, balki Sharq jamiyatlarining taraqqiyot jarayonidagi muhim ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu harakat, avvalo, musulmon jamiyatlarining Yevropa iqtisodiy, madaniy va ilmiy yutuqlariga javob berishga bo'lgan ehtiyoji bilan shakllandi. XIX va XX asrlar davomida islom olami mustamlakachilik to'liqini, sanoat inqiloblari va Yevropa imperiyalarining siyosiy-iqtisodiy ekspansiyasi bosimida qoldi. Bu jarayonlar nafaqat Sharq jamiyatlarining ijtimoiy tuzilmalarini o'zgartirdi, balki islomiy dunyoqarashga ham ta'sir ko'rsatdi.

Islom modernizmi XIX asrning oxirlarida musulmon jamiyatlarida paydo bo'lgan. Bu harakat turli ilmiy, iqtisodiy va siyosiy chegaralarda Yevropa tajribasi bilan muloqotga kirishgan musulmon ziyolilari va islohotchilari tomonidan ilgari surilgan. Ularning asosiy maqsadi shariat qoidalarini va musulmon an'alarini zamonaviy dunyo taraqqiyotiga moslashtirish edi. Bu jarayonda Jamoliddin Afg'oniy, Muhammad Abdo va boshqa islom islohotchilari muhim rol o'ynadilar. Ular Yevropadagi siyosiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarning asosida yotgan fan, ta'lim, demokratiya va huquqiy institutlarni islom qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surdilar.

Yevropa davlatlari XIX asrda global miqyosda mustamlakachilik siyosatini keng yoyishdi. Ingliz, fransuz va rus imperiyalari musulmon aholisi yashaydigan hududlarni o'z nazoratiga oldilar. Bu jarayon musulmonlar an'anaviy hayot tarzini izdan chiqardi. Yevropaning madaniy, iqtisodiy va siyosiy bosimi natijasida musulmon elitasi o'z madaniyati va dinini saqlab qolish uchun yangi strategiyalarni izlay boshladi. Ayni vaqtda, Yevropa madaniyatining ma'lum jihatlari (ta'lim tizimi, texnik innovatsiyalar) musulmonlar tomonidan qabul qilindi, chunki ular taraqqiyot uchun zarur deb baholandi.

Shunday qilib, Islom modernizmi, musulmonlarning o'z madaniyati va dinini saqlash bilan birga, zamonaviy dunyo talablariga moslashish zaruriyatidan kelib chiqqan g'oyalarni o'z ichiga olgan. Bu, o'z navbatida, Islomni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilishni va uning zamonaviylikka qanday moslashayotganini anglashni taqozo etadi.

Islom modernizmi ijobiy xarakter kasb etishi bilan birga, bir qator muammo va tanqidlarga ham uchradi. Xususan, islom modernizmi harakatlari barcha musulmon jamiyatlarida ham birdek qabul qilinmadi. Konservativ va an'anaviy islomiy doiralar bu harakatni shariat qoidalarini va musulmon an'alaridan chekinish sifatida ko'rdilar. Shunga qaramay, bu harakat musulmon dunyosida islohot va taraqqiyot jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi (Qarang: 1-rasm).

1-rasm

1.	Din va ilmning uyg'unligi masalasida	Islom modernizmi vakillari din va ilm o'rtasida ziddiyat yo'qligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, ilm faoliyati Allohning olamni yaratishdagi qonuniyatlarini tushunish vositasi bo'lishi mumkin.
2.	Ijtimoiy adolat va taraqqiyot masalasida	Islom islohotchilari musulmon jamiyatlaridagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda dinning ijtimoiy adolat prinsiplarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydilar.
3.	Zamonaviy ta'lim va falsafa uyg'unligida	Islom modernizmi zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish va Yevropa falsafasini o'rganishni targ'ib qildi. Buning asosida musulmon jamiyatlaridagi intellektual rivojlanishni rag'batlantirish maqsadi yotar edi.
4.	Musulmon jamiyatining islohotida	Shariat qoidalarini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish orqali musulmon jamiyatlarini ijtimoiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash harakatlari amalga oshirildi.

1-rasm. Islom modernizmining asosiy g'oyalari

Islom modernizmi musulmon jamiyatlarining Yevropa bosimiga javob sifatida paydo bo'lgan, tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning bir qismi hisoblanadi. U, bir tomondan, musulmonlarning o'z an'alarini saqlab qolish, ikkinchi tomondan, zamonaviy taraqqiyotga moslashish istagi o'rtasidagi muvozanatni yaratishga intiladi. Bu jarayon musulmon dunyosidagi ilmiy va madaniy rivojlanishga yo'l ochdi, ammo bir vaqtning o'zida an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi qarama-qarshilikni ham kuchaytirdi.

Bizningcha, "Islom modernizmi" va "Islomni modernizatsiya qilish" tushunchalari alohida-alohida mazmun kasb etadi. Chunki, "Islom modernizmi"da islom zamonaviy davrda ham o'z mavjudligini saqlab qolgan holda, undagi qonun-qoidalarini zamonga moslashtirish, ya'ni uning asliyatini o'zgartirmagan holda yondashishni nazarda tutadi. Chunki, davrlar o'tgan sari insonlarning turmush tarzida yangicha muammolar paydo bo'la boshlashi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu muammolarning islom dini asosida zamonga mos holda isloh qilinishi "islom modernizmi" (musulmon modernizmi) deyiladi. "Islomni modernizatsiya qilish" jarayonida esa, islomning

mazmun-mohiyati, undagi tushunchalarni o'zgartirilishi nazarda tutiladi. Natijada, din niqobi ostidagi ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishi va diniy-siyosiy vaziyatlar ostida islomni siyosiy lashishi hamda mamlakatlar tinchligi va osoyishtaligini buzish, ularning taraqqiyotiga zarba berish kabi hodisalarning ortib borishi kuzatiladi. Bunga biz, Yaqin Sharq mamlakatlari hisoblangan Iroq va Shom mamlakatlarining XXI-asrdagi "Arab bahori" natijasidagi taqdirida ham guvoh bo'ldik.

"XIX asr oxiri – XX asr boshlarida musulmon modernizmi, ya'ni "islom modernizmi" deb atalgan nufuzli tendensiya islomning yangi zamon bilan to'la muvofiqligini e'lon qildi. Bu pozitsiyaga ko'ra, taraqqiyot muqarrar va talab qilinadigan bo'lib, islomga mutlaqo muvofiq edi. Modernistlar nuqtai nazaricha, islom dindorlarni oldinga siljish yoki taraqqiy etishini talab qildi. Musulmon modernistlari ta'lim va oilaviy hayotni isloh qilish, ayollarning mavqeini o'zgartirish, sog'liqni saqlash va gigiyena bo'yicha yangi g'oyalarni va boshqa ko'p narsalarni qo'llab-quvvatladi; aslida, modernistlar islomni va musulmonlarni modernizatsiya qilishga harakat qildilar" [6, – C. 26].

Darhaqiqat, musulmon modernizmi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan, islom dinini zamonaviy davr talablari va taraqqiyot bilan muvofiqlashtirishga urinish sifatida namoyon bo'lgan harakatdir. Bu harakat tarafdorlari, ya'ni musulmon modernistlari, dunyo taraqqiyotini muqarrar va zarur deb hisoblaganlar va buni islom ta'limotlari bilan to'liq mos keladi [6], deb ta'kidlaganlar (Qarang: 2-rasm)

2-rasm

1.	Taraqqiyotning islomga muvofiqligi masalasida:	Modernistlar islom dini faqat dindorlikni emas, balki zamonaviy dunyoda ilgarilashni, bilim olishni va ijtimoiy islohotlarni ham talab qiladi, deb hisoblagan.
2.	Islohotlar zarurati masalasida:	Ular ta'lim tizimini, oilaviy hayotni va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yaxshilashni muhim deb hisoblagan.
3.	Musulmon jamiyatini modernizatsiya qilish masalasida:	Islom va musulmon jamiyatini zamonaviy hayotga moslashtirish orqali ular musulmonlarning taraqqiyotiga hissa qo'shishni ko'zlagan.

2-rasm. Musulmon modernistlarining zamonaviy qarashlari

Musulmon modernizmi – zamonaviylashish va G'arb tamadduni bilan raqobatda samarali bo'lish uchun musulmon dunyosidagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga yechim sifatida shakllangan. Biroq, bu faqat G'arbdan ilhomlanish emas, balki islomning asosiy qadriyatlari va prinsiplari bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Bunda musulmonlar o'z dinlarini tark etmasdan, zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lishlari talab etilgan. Musulmon modernizmi musulmonlar o'rtasidagi ta'lim, ilm-fan va ijtimoiy hayotni taraqqiy ettirishda muhim rol o'ynagan.

Sharqning eng rivojlangan mamlakatlarida diniy islohot jarayonlari XIX-asrning oxirgi uchdan birida sinfiy shakllanish jarayonlariga to'g'ri keladi. "Shu bilan birga, diniy va umumta'lim fanlari o'qitiladigan modernizatsiya qilingan maktablarning paydo bo'lishi, isloh qilingan dinni targ'ib qilish markazlariga aylangan missionerlik va xayriya muassasalarining tashkil etilishi, shuningdek, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyasi, tibbiyot, savdo, nashriyot va boshqalar yangi ziyolilar qatlamlarining paydo bo'lishi va kengayishiga yordam berdi" [4, – C. 10].

Turkistonga esa islom modernizmini ilk bora jadid ma'rifatparvarlari olib kirdi. Xususan, jadidchilikda biz bir nechta yo'nalishlarni isloh qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bular:

- dinning yangilanishi;
- ta'lim sohasidagi islohotlar;
- musulmon jurnalistikasining gullab-yashnashi;
- siyosiy faoliyat;
- xotin-qizlar masalasi [7, – C. 16].

Yuqorida keltirib o'tilgan islohotlar ichida dinni isloh qilish jarayoni boshqa jarayonlarga qaraganda ancha murakkablikni kasb etadi. Chunki, xalqning uzoq tarixiga ega bo'lgan islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirish o'lkadagi "ulamo"larning tafakkuridagi qarashlari bilan hamohang bo'lmaydi. Yangilikni go'yoki shariatga kiritilayotgan yangilik, ya'ni bid'atdek qabul qilishadi.

Jadid ma'rifatparvarlaridan biri Is'hoqxon to'ra Junaydulloh Xo'ja Ibrat ilm sohasida musulmonlar qoloqlik sari borayotganliklariga kuyinib: "Asli illat hammasiga ilmu hunarsizlik. Ilmu hunar bo'lsa, maktab-madrasa birla bo'lur. Bu asbobi ilmlar hech biri bizda yo'q uchun hamma umurimizda usr (qiyinchilik) bo'lgan. Endi dunyo va oxirat rohati ilm ekan, nimaga o'qutmadukki, bizdan keyingi avlodlarimiz rohatda bo'lmadilar. Olloh taolo bizga yusr (osonlik)ni xohlagon, usrni (qiyinlikni) xohlagan emas" [8, – B. 107.] – deydi. Bu bilan Ibrat diniylik va dunyoviylik naqadar lozim ekanligiga urg'u beradi.

Abdurauf Fitrat esa, "Ajabo, shuncha buyuklik (ne holda?). Shuncha azimat va ulug'lik qayerga yo'qoldi? Nechun ahli islomning dunyoi jahon donishi ilmlarining sharofati shu qadar baxtsizlik va jaholatga duchor bo'ldi?! Hozir umumiy islom olamining ahvolidan o'tib, o'zimizning (shu kungi) holimizni tadqiq qilsak. Sanoatimiz shu darajada ediki, xalifalar shuncha azimat va shavkatli bo'lishlariga qaramay, libos, kiyim-kechaklarini bizning mamlakatimizdan olib ketardilar. Ajabo, bu merosu saodatning baland cho'qqisidan qanday qilib tushib qoldik?" [9, – B. 64-65] – deya, islom diniga kirib qolgan "zararli" va "konservativ" qarashlarni mavjudligini, musulmon jamoalarining taraqqiyot jihatdan rivojlangan mamlakatlardan ortda qolib ketish sabablarini ilmsizlikdan va izlanishlardan to'xtashlikda deb bildi.

Abdurauf Fitrat bunday illatlarga qarshi kurashishda o'zining tahliliy misollarini keltirgan holda, jadidchilik harakatining islohotchilikka yo'naltirilgan harakat ekanligini isbotlaydi. Chunonchi, jadidlar dinni isloh qilgan holda, ya'ni islom dinini yaxshi o'rganib, taraqqiy etgan yurtlardagi jamiyatga maqbul bo'lgan yangiliklarni olib kirishga harakat qildilar. Shu bois, ular o'z harakatlarida islom modernizmini yoyishga urundilar.

Islom modernistlarining eng faol bo'lgan davri bu XIX-asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki, bu davrda musulmon dunyosining ba'zi qismlari Yevropa mamlakatlarining hukmronligi ostida edi. Ularni yagona bayroq ostida birlashtirish, ularni musulmon bo'lmagan mamlakatlarning hukmronligidan qutqarish uchun ham "islom modernizmi" asosiy ozodlik quroli sifatida ham kerak edi.

"Islom modernizmi" xususida gap borganda, avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, o'tgan asrda "Turkiya – modernizatsiya yo'lidan eng uzoqqa qadam tashlagan mamlakat hisoblanadi. Go'yoki, Otaturk Yevropaga yaqinlashdi, ya'ni davlatni dindan ajratdi" [10, – 305]. Bu esa, islom modernizmi uchun ilk qadam bo'ldi.

Islom modernistlarining faollashuviga asosan, Usmoniy imperiyasining bir qismi bo'lgan Misrni Napoleon Banapart tomonidan bosib olinishida harbiy-texnik sohadagi turg'unlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi qoloqlik, xususan, islom madaniyatining tanazzulga yuz tutayotganligi bo'ldi. Mana shu holatlarni to'g'ri anglagan islom modernistlari musulmon diyorini g'ayridinlar bosqinidan ozod qilish uchun "islom modernizmi" zarur ekanligini ta'kidlaydilar va bu uchun islom birligi, ya'ni "panislomizm" mafkurasi asosida harakatni boshlaydilar. Ayniqsa, bir necha yillik tarixga ega bo'lgan islom qadriyatlaridan voz kechgan holda G'arb dunyosi bilan teng bo'lish mumkin emasligini tushungan islom mafkukurachilari islomdan voz kechmagan holda Yevropaning dastur va tajribalarini qabul qilib, ularning ilm-fan, texnika va madaniyat sohasidagi yutuqlarini o'zlashtirish orqali islom modernizmini amalga oshirishni o'zlarining asosiy maqsadlari deb hisobladilar. Darhaqiqat, Sharqning G'arb bilan teng bo'lishi uchun asosiy yechimlardan biri ham "islom modernizmi" edi.

Xususan, "islom modernizmi" haqida gapirganda, ushbu g'oyani ilk bora muomalaga kiritgan din islohotchisi Jamoliddin al-Afg'oniyni eslab o'tish muhimdir. Chunki, ko'p tadqiqotchilar islom modernizmining asoschisi sifatida Jamoliddin Afg'oni (1839-1897)ni ko'rsatib o'tadilar. Jamoliddin al-Afg'oni nafaqat Sharq mamlakatlari, balki G'arb mamlakatlariga ham ko'plab sayohatlar uyushtirgan shaxs hisoblanadi. Shuningdek, u islomni rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiyasi, ya'ni "islom sotsializmi" mafkurasining asoschisidir. Jamoliddin al-Afg'oniyning mafkurasi yevropalik mustamlakachilarga qarshi musulmon mamlakatlarini yagona birlik asosidagi, ya'ni konfederativ ko'rinishdagi davlat tuzishlari lozimligi hamda islomdan majburiy tarzda foydalanish kerakligini o'zida aks ettiradi. Biroq, uning bu g'oyasini sunniy olimlar qattiq tanqid ostiga oladilar.

Jamoliddin al-Afgʻoniyning mafkurasi keyinchalik uning shogirdi Misrlik musulmon islohotchisi Muhammad Abdo (1849-1905)ning faoliyatida noaniqlik koʻrinishida davom etishiga olib keldi. Xususan, u oʻzi yashagan davrda Misrda “islom modernizmi”ni rivojlantirdi. “Abdo universitet tuzilmasini isloh qilish, taʼlim dasturlarini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi taʼsir koʻrsatdi va haqiqatda universitetning zamonaviy qiyofasini shakllantirdi. Muhammad Abdo amaliyotchi ilohiyot olimi va muftiy sifatida bir qancha fatvolar chiqargan boʻlib, uning mazmuni va asosiy xabarlarida Misr ummatining oʻzgaruvchan ijtimoiy va madaniy sharoitlarga moslashish jarayonini kuzatish mumkin: masalan, fatvolar oziq-ovqatga boʻlgan baʼzi cheklovlarni bekor qilish, dindorlarga yevropacha liboslar kiyish va soch turmagi qilish, rasm chizish va haykaltaroshlik bilan shugʻullanish hamda qarz olishda foiz stavkalarini qoʻllashga ruxsat berishga bagʻishlangan edi” [5, – C. 10]. Biroq, Muhammad Abdo musulmon islohotchisi sifatida bir tarafdin Yevropa rivojlanish yoʻlidagi qonunlarni olib kirishga harakat qilgan boʻlsa-da, ikkinchi tomondan unda shariatga asoslangan davlatni qurish istagi ham mavjud edi. Chunki, uning “Risola at-tavhid” (“Tavhidga daʼvat”) asarida Yevropa va musulmon olami madaniyatining oʻziga xos jihatlari sintez qilingan holda bayon qilingan. Shu bois, Muhammad Abdoning qarashlarida noaniqlik yaqqol koʻzga tashlanadi. Uning “Risola at-tavhid” asaridagi noaniqlik esa, bugun Yaqin Sharqda faoliyat yuritayotgan din niqobi ostidagi ekstremistik va terroristik tashkilotlar uchun ham manba boʻlib xizmat qilishiga sabab boʻlmoqda.

Umuman aytganda, diniy mafkuralarni ijobiy va salbiy xususiyatlarga ajratganda: ijobiyga – diniy bagʻrikenglik, diniy modernizm va sekulyarizatsiyani keltirib oʻtishimiz mumkin. Salbiy tomoniga esa – aqidaparastlik (mutaassiblik), konservatizm va dogmatizm kabi illatlar misol boʻla oladi. Mana shu ikki xil qarashlar oʻrtasida hamisha kurashlar davom etib keladi. Shu bois, biz ham Muhammad Abdoning fikrlarida “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” jarayoni kabi bir biriga qarama-qarshi boʻlgan tendensiyalar sintezlashganini koʻramiz.

Bugun Yaqin Sharq mamlakatlarida “islomni modernizatsiya qilish” jarayonidan ustalik bilan oʻz maqsadlari yoʻlida foydalanayotgan ekstremistik va terroristik tashkilotlar asl islomning imidjiga hamda islom diniga eʼtiqod qiluvchilarning ongu-shuuriga aynan Muhammad Abdoning fikrlariga tayangan holda salbiy taʼsir koʻrsatib kelmoqdalar. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Biz muqaddas dinimizni notoʻgʻri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, oʻrta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzgʻunchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qatʼiy kurash olib boramiz” [11, – B. 47].

Yuqorida keltirib oʻtilganidek, “islom modernizmi” ilk bora Muhammad al-Afgʻoniy, keyinchalik Muhammad Abdo tomonidan rivojlantirilgan boʻlsa, Rossiya imperiyasida esa, bu faoliyatni ijobiy jihatdan rivojlantirgan shaxs sifatida qirim-tatar pedagog Ismoil Gasprali (1851-1914 yy)ni keltirib oʻtishimiz mumkin. Ismoil Gasprali jadidchilik harakati doirasida “islom modernizmi”ni rivojlantirgan shaxs hisoblanadi. Xullas, “islom modernizmi” jadid maʼrifatparvarlarining gʻoyalarida Turkistonda ham oʻz ifodasini topdi. Xususan, “Islom modernizmi” – “jadidchilikda islom dinini nafaqat sof musulmon qadriyatlar, balki insonparvarlik haqidagi umuminsoniy (asli yevropachadan kelib chiqqan) falsafiy gʻoyalar asosida takomillashtirish zarurligi haqidagi qoidalar majmui edi” [5, – C. 11].

Faqat biz uning ijobiy va salbiy jihatdan yondashuv asosida qarashimiz masalaning eng dolzarb jihati hisoblanadi. Chunki, mafkuralar turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim. Shu bois, “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” jarayonini bir biridan mazmun jihatdan va maqsad jihatdan tubdan farq qiladigan mafkura desak mubolagʻa boʻlmaydi. Aslida bir vaqtda, lekin turli hududlarda turli maqsadlar uchun foydalanilgan “islom modernizmi” musulmon mamlakatlarida yevropa mustamlakachiligiqa qarshi qaratilgan, islom dinini saqlab qolishga urinilgan mafkura sifatida maydonga chiqqan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “islom modernizmi” va “islomni modernizatsiya qilish” jarayonlari turli xil koʻrinish kasb etadi. Shu bois, ularni ijobiy va salbiy xususiyatlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. “islom modernizmi” jamiyat va davlat rivojlanishida ijobiy natijalarni beradi. Biroq, “islomni modernizatsiya qilish” jarayoni esa, salbiy holatlarni, yaʼni din niqobidagi aqidaparast, ekstremist va terroristlarni vujudga keltirishga sabab boʻladi.

“Islom modernizmi”da din davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da mustaqil tarzda o‘z faoliyatini olib borishga harakat qiladi. Shuningdek, o‘tgan asrda yaratilgan ijtimoiy ta’limotlarning mazmun-mohiyati ushbu mafkuralarni yaratuvchilar tomonidan aniq belgilab berilmaganligi sababli bugun Yaqin Sharq mamlakatlarida beqarorliklar kelib chiqishiga turtki bo‘ldi. Yevropa va musulmon olamidagi madaniyatlarning sintezi modernistlar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilmaganligini o‘tgan asrdagi ideologlarning asarlari ham tasdiqlab berdi. Shu bois, “jadidchilik harakati”ni “islohotchilik harakati” deb atash ham mumkin. Chunki, aynan ular jamiyatni turli sohalarda yangilashga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Головушкин Д.А. Религиозный модернизм: границы применимости понятия // “Политология. Религиоведение”. 2015. Т. 13.
2. Белоглазов А.В. Влияние ислама на политические процессы в Центральной Азии. – Казань: Казан. ун-т, 2013.; Мамаюсупов С.Д. Ўзбекистонда десекуляр жараённинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари ва ёшлар билан боғлиқ сегментлари: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Андижон: 2022.
3. Ислом модернизми ва салафия – умумийлик нимада? <https://www.islamonline.uz/site/item?id=4283>
4. Родригес А.М. Реформация и модернизация религиозной и политической идеологии на Востоке (XIX–XX вв.): Монография. – М.: МПГУ, 2011.
5. Черевков О.С. Исламский модернизм в России: зарождение, особенности и возможные перспективы дальнейшего развития // Россия и мусульманский мир (Научно-информационный бюллетень). – Москва: 2021. – № 2 (320). – С. 5-17.
6. Адиб Халид. Ислам после коммунизма: Религия и политика Центральной Азии. – М.: Новое литературное обозрение. 2010.
7. Сенюткина О.Н. Джадидизм как часть российского исламского дискурса (современные историографические оценки) // Исламоведение. 2018. Т. 9, – № 2.
8. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2010.
10. Ибрагим Т. Ислам и однобокая модернизация: “Не произошло освобождения от средневековья” (интервью) // Государство, религия, церковь в России и за рубежом. 2017. – № 3 (35).
11. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, I том. 2017.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI
OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI
YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.**

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729
“СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ
ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ
ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING
A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE
NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000